

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

BANNOYEV SHOKIRJON SHARIPJONOVICH

**MINTAQADA OZIQ-OVQAT BOZORINING AMAL QILISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Bannojev Shokirjon Sharipjonovich

Mintaqada oziq-ovqat bozorining amal qilish mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida)..... 3

Банноев Шокиржон Шарипжонович

Совершенствование механизма функционирования продовольственного рынка в регионе (на примере Наманганской области)..... 29

Bannojev Shokirjon Sharipzhonovich

Improving the functioning of the food market in the region (on the example of the Namangan area)..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

BANNOYEV SHOKIRJON SHARIPJONOVICH

**MINTAQADA OZIQ-OVQAT BOZORINING AMAL QILISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3070 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "Ziyonet" axborot- ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sotvoldiev Nodirbek Jurabaevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ruzmetov Baxtiyor
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Umarov Suxrob Rustamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti


Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.1.01.11 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil 3-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahar,Olmazor tumani,/ Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, faks: (71) 246-90-80, e-mail: rektor@nuu.uz).


Dissertatsiya ishi bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (149-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, faks: (71) 246-90-80, e-mail: rektor@nuu.uz).


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-sentyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 10-sentyabrdagi 49-raqamli reyestr bayonnomasi)




X.P. Abulqosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


Q.Q. Mambetjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor


A.V. Vaxabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlari va geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi barcha mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarga qarshi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish tendensiyasini kuchaytirmoqda. Jahon oziq-ovqat tashkiloti hisobotiga ko'ra, "...2023-yilda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining 13,3 foizi va 2024-yilda 17,0 foizi chakana savdo va iste'mol bosqichlarida yo'qotishlarga uchragan. Hajmi bo'yicha bu ko'rsatkich o'rtacha 931 mln. tonnani tashkil qilmoqda"¹. Ayniqsa, so'nggi besh yilda koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlar uzilishi va narxlar oshishiga sabab bo'ldi. Bu esa jahon mamlakatlarida oziq-ovqat bozorlarining notekis rivojlanishi va uning natijasida yuzaga keladigan mintaqaviy tengsizliklarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash hamda shu asosda mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash siyosatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oziq-ovqat bozorida uning samarali amal qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning innovatsion usullarini ishlab chiqish masalasi global muammo sifatida o'rganilmoqda. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni eksportga rag'batlantirish uchun subsidiyalar ajratish, aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini mahalliyashtirish, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soluvchi yangi omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash masalasi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ijtimoiy-iqtisodiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo, respublika mintaqalari, jumladan, Namangan viloyati oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda so'nggi besh yilda qator ijobiy natijalarga erishilgan bo'lishiga qaramasdan, sohada turli xil darajada nomutanosibliklar mavjudligi sababli aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublika o'rtacha ko'rsatkichidan orqada qolmoqda. Shuning uchun "Namangan viloyatida 2022–2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,4 baravarga, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravarga, xizmatlar hajmini 3,0 baravarga hamda qurilish ishlari hajmini 1,6 baravarga"² oshirish vazifalarining belgilab qo'yilishi mintaqada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasini oshirish masalasini hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi PF-5303-son "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 23-oktyabrdagi

¹ Your guide to living free of food waste. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/32a64f32-55fe-4248-a348-da9127f7be0a/content>

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-apreldagi 211-son "2022–2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/5984308#5984924>

PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 7-iyundagi PQ-273-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-aprelda 324-son “Dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 20-yanvardagi 37-son “Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”, 2022-yil 31-martda 147-son “Oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 25-aprelda 211-son “2022–2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Uzoq xorij mamlakatlarida barqaror oziq-ovqat tizimlarini joylashtirish, mahalliy oziq-ovqat manbalari va marketingi, mikro va makro darajalarda oziq-ovqat ta‘minoti masalalari K.Valts, G.Finstra, K.Xan, Dj.Dann, R.Dennis, S.Devis R.Kapone, R.Zurayk, S.Martines, K.Piterson kabi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.³

³ Christopher L. Waltz. Local food systems: background and issues. – New York: Nova Science Publishers, 2011. – pp. 26–27; Feenstra, G. Creating space for sustainable food systems: lessons from the field // J. Agriculture and Human Values. – Kansas: № 19 (2), 2002. – pp. 99–106; Kristine Hahn. What is a food shed? // Michigan State University Extension. – Michigan: 24 (3), 2013. https://www.canr.msu.edu/news/what_is_a_food_shed; Jonnie B. Dunne, Kimberlee J. Chambers, Katlyn J. Giombolini and Sheridan A. Schlegel. What does “local” mean in the grocery store? Multiplicity in food retailers' perspectives on sourcing and marketing local foods // J. Renewable Agriculture and Food Systems. – Cambridge: № 26 (1), 2011. – pp. 46–59; Dennis R. Between the farm gate and the dinner plate: motivations for industrial change in the processed food sector // J. The future of food: long-term prospects for the agro-food sector. – Paris: 1998, № 1. – pp. 111–140; Steve Davies. A Ripe Time for Local Food. <https://www.pps.org/article/farmersmarketsandlocalfood>; Capone R. Food Economic Accessibility and Affordability in the Mediterranean Region: an Exploratory Assessment at Micro and Macro Levels // Journal of Food Security. – New York, 2014, № 1. – pp. 1–12; Rami Zurayk. Global Views of Local Food Systems: Asking the Right Questions // Journal of Agriculture, Food Systems, and Community Development. – New York: № 1, 2012. – pp. 17–19; Steve Martinez. Local Food Systems Concepts, Impacts, and Issues. – Washington: Economic Research Service, 2010. – pp. 3–4; Christopher Peterson. Market Access for Local Food through the Conventional Food Supply Chain // International Food and Agribusiness Management Review. – Zhejiang, № 1, 2011. – pp. 41–60;

Yaqin xorij mamlakatlarida Y.A.Abramova, M.E.Axmadov, Y.B.Dvoryadkina, Y.V.Satalkina, I.V.Filimonenko, N.V.Novikova, M.G.Lapaeva va D.V.Urmanovlar tomonidan mahalliy oziq-ovqat bozorlarining faoliyatini turli mezonlar asosida baholash va rivojlanish istiqbollari belgilash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.⁴

O'zbekistonda agrosanoat majmuasini hududiy tashkil etish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablari, dehqon bozorlarida tovarlar narxining o'zgarish qonuniyatlari, qishloq xo'jaligining tarmoq va hududiy tarkibi o'rtasidagi mutanosibliklar, mintaqaviy oziq-ovqat bozorini shakllantirish va rivojlantirish xususiyatlari O.Abdullaev, A.Abdug'aniyev, B.B.Berkinov, M.Dehqonov, O.O.Olimjonov, B.Z.Nosirov, I.Ivatov, Ch.Murodov, U.S.Muxiddinova, N.J.Sotvoldiev, F.T.Egamberdiev va R.H.Husanov kabi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.⁵

Yuqoridagi tadqiqotlarda, birinchidan, mintaqaviy iqtisodiy makonning tarkibiy qismi sifatida mahalliy oziq-ovqat bozorining amal qilish masalalari nazariy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmaganligini ta'kidlash lozim. Ikkinchidan, zamonaviy yondashuvlarda mintaqaning notekis makon jihatidan rivojlanishini hisobga olgan holda mahalliy oziq-ovqat bozorini tabaqalashtirish masalalari ochiq qolmoqda. Bu esa dissertatsiya mavzusini tanlash, tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilashga asos bo'ldi.

⁴ Абрамова Е. А. Локальный рынок депрессивного региона: анализ, оценка, перспективы развития: на примере рынка овощной продукции: Авто. дис. ... канд. экон. наук. – Иваново: ИГХТУ, 2005. – 21 с.; Ахмадов М.Э. Исследование рыночного структурирования внутрирегионального экономического пространства // Инженерный вестник Дона. – Ростов: № 4, 2010. – С. 295–300; Дворядкина Е.Б. Локальный потребительский рынок товаров и услуг: теоретические аспекты исследования // Известия Уральского государственного экономического университета. – Урал: № 6 (38), 2011. – С. 98–104; Саталкина Е.В. Локальные рынки продовольственных товаров: инфраструктура и классификация // Ж. Налоги. Инвестиции. Капитал. – Тюмен, № 5-6, 2007. – С. 49–55; Филимоненко И.В. Управление локальными рынками региона как факторами экономического роста (Монография). – Красноярск: СФУ, 2013. – С. 52–53; Новикова Н.В. Понятийно-терминологический аппарат исследования локального потребительского рынка // Ж. Муниципалитет: экономика и управление. – Урал, № 1 (2), 2012. – С. 23–29; Лапаева М.Г., Гущина А.А. Основные свойства локальных рынков // Ж. Интеллект. Инновации. Инвестиции. – Оренбург, № 3, 2017. – С. 31–34; Урманов Д.В. Локальные территории в пространственном развитии системы «центр - периферия» региона // Вестник Томского государственного университета. – Томск, № 3, 2010. – С. 127–130.

⁵ Абдуллаев О. Жумхуриятлараро агросаноатни ташкил этиш муаммолари. – Т.: Мехнат, 1991.; Абдуғаниев А., Абдуғаниев А.А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2004; Беркинов Б.Б., Ахмедов У.А. Аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган истеъмол талабларининг таҳлили // Ж. Bizines-Эксперт. – Т., 2014, № 8. – Б. 47; Дехқонов М. Дехқон бозорларида товарлар нарх-навоси ўзгаришининг эконометрик тадқиқоти: Иқтисодиёт фан. номз. ... дисс. автореф. – Т.: ФА Кибернетика ИИЧБ, 2001. – 23 б.; Олимжонов О.О. Изменения в территориальной и отраслевой структуре сельского хозяйства страны за 2005-2015 годы // Сборник VIII Форума экономистов. – Т.: ИПМИ, 2017. – С. 505–512; Носиров Б.З. Минтақавий озиқ-овқат бозорини шакллантириш ва ривожлантиришнинг хусусиятлари (Андижон вилояти мисолида): Иқтисодиёт фан. номз. ... дисс. автореф. – Т.: СИСМ, 2004. – 23 б.; Иватов И. Развитие дехканского рынка в Узбекистане. – Т.: Фан, 1994.; Муродов Ч. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида бозор инфратузилмасининг ривожланиши (аграр сектор мисолида): Иқтисодиёт фан. док. ... дисс. автореф. – Т.: ЎзБИИТИ, 2001; Мухиддинова У.С. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мева-савзавотчилик маҳсулотлари бозорини ривожлантириш йўналишлари: Иқтисодиёт фан. док. ... дисс. автореф. – Т.: БМА, 2010. – 37 б.; Сотволдиев Н.Ж. Фарғона минтақасида озиқ-овқат бозорининг амал қилиш механизмини такомиллаштириш: Иқтисодиёт фан. док. ... дисс. автореф. – Т.: ПМТИ, 2021. – 76 б.; Эгамбердиев Ф.Т. Региональные особенности развития агропромышленного производства в условиях либерализации экономики: Автореф. дисс. ... док. экон. наук. – Т.: НУУ, 2003. – 42 с.; Хусанов Р.Х., Додобоев Ю.Т., Додобоев Д.Ю. Агросаноат комплекси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: Қувасой тадбиркорлик ўқув илмий ишлаб чиқариш Маркази, 2003.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № PZ-20170929525 “Namangan viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash va sotishning marketing strategiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqada oziq-ovqat bozorining amal qilish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

“mahalliy oziq-ovqat bozori” iqtisodiy kategoriyasini tahlil etish va mualliflik qarashlarini bayon etish;

hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning mahalliy oziq-ovqat bozori shakllanishi va rivojlanishiga ta'sirini ochib berish;

mintaqaviy iqtisodiyot kontsepsiyasida mahalliy oziq-ovqat bozorlarini tadqiq etish yo'nalishlarini tahlil qilish;

oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tumanlarda tabiiy resurslarni o'zlashtirish imkoniyatlarini baholash;

mahalliy oziq-ovqat bozoriga ta'sir etuvchi iqtisodiy-demografik omillarni tahlil qilish;

Namangan viloyatida mahalliy oziq-ovqat bozorining rivojlanish muammolarini aniqlash;

mahalliy oziq-ovqat bozori orqali mintaqaning iqtisodiy o'sish nuqtalarini faollashtirish yo'nalishlarini asoslash;

demografik va tabiiy-iqtisodiy salohiyat asosida mahalliy oziq-ovqat bozorini rivojlantirishning prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Namangan viloyatining mahalliy oziq-ovqat bozorlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy oziq-ovqat bozorining rivojlanish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida retrospektiv, funksional-tuzilmaviy, miqdoriy, tizimli va qiyosiy tahlillar, statistik guruhlashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ierarxik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Namangan viloyatida mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladigan bozorlarni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini Namangan shahri, Yangi Namangan va Davlatobod tumanlarini “asosiy zona”, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on tumanlarini “o'sish zonasi”, Kosonsoy, Pop, Chortoq tumanlarini “yangi rivojlanish zonasi” va Mingbuloq tumanini “depressiv zona”larga ajratib, ularga tabaqalashtirilgan subsidiyalar paketini taqdim qilish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

mintaqada mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan hududiy, reproduktiv va institutsional omillar o'rtasidagi mutanosiblikni To'raqo'rg'on tumanida meva-sabzavotchilik, Uchqo'rg'on va Norin tumanlarida g'allachilik klasterlarini tashkil etish orqali ta'minlash taklifi asoslangan;

Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va shu turdagi tovar aylanmasini jadallashtirishga Yangiqo'rg'on tumani qishloq xo'jaligi tarmog'i uchun kimyoviy elementlar va mineral xomashyo yetkazish, Pop tumanini magistral transport yo'llarida savdo va logistika xizmatlari ko'rsatish, Uchqo'rg'on tumanini baliqchilikka ixtisoslashtirish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Namangan viloyati hududlarining demografik salohiyati, ishlab chiqarish imkoniyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mintaqada mahalliy oziq-ovqat bozorini rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy oziq-ovqat bozorini mintaqa iqtisodiy makonining bir qismi sifatida harakatlanadigan chegaralari asoslangan;

aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi daromad, iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi va demografik ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda mintaqa hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy tengsizligi sabablari ochib berilgan;

tabiiy resurslar va ishlab chiqarish salohiyatidan kelib chiqib, Namangan viloyati hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning aholiga nisbatan balansi ishlab chiqilgan;

hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirish asosida mintaqaning iqtisodiy o'sish nuqtalarini faollashtirish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ma'lumotlar bazasini rasmiy manbalardan olinganligi, tahliliy usullar nazariy-uslubiy, matematik modellashirish usullar bilan ilmiy asoslanganligi, ilmiy natijalarni xalqaro va milliy darajadagi konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilganligi, ilmiy va amaliy takliflarni amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganini bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan mahalliy oziq-ovqat bozorining nazariy-amaliy jihatlarini va uning amal qilish mexanizmini takomillashtirish hamda mavzuga oid maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, davlat tomonidan oziq-ovqat bozorini tartibga solish bo'yicha strategik va kompleks dasturlar ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining hududiy boshqarmalari va bo'limlari mutaxassislari malakasini oshirish, Hukumatning oziq-ovqat bozorining amal qilishi va rivojlanishiga bag'ishlangan davlat dasturlarini ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida "Mintaqaviy iqtisodiyot" va "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitishda ilmiy-nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqa oziq-ovqat bozorining amal qilish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

Namangan viloyatida mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladigan bozorlarni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini Namangan shahri, Yangi Namangan va Davlatobod tumanlarini “asosiy zona”, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on tumanlarini “o‘sish zonasi”, Kosonsoy, Pop, Chortoq tumanlarini “yangi rivojlanish zonasi” va Mingbuloq tumanini “depressiv zona”larga ajratib, ularga tabaqalashtirilgan subsidiyalar paketini taqdim qilish orqali takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 1-2-illovalarini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Investisiyalar, eksport, savdo, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari kotibiyatining 2024-yil 10-maydagi 04/1-595-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyati hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining ixtisoslashuvi va mazkur turdagi tovarlar bozorining rivojlanishiga erishiladi;

mintaqada mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan hududiy, reproduktiv va institutsional omillar o‘rtasidagi mutanosiblikni To‘raqo‘rg‘on tumanida meva-sabzavotchilik, Uchqo‘rg‘on va Norin tumanlarida g‘allachilik klasterlarini tashkil etish orqali ta‘minlash taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-aprelda 211-son “2022–2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori 2-illovasining 38- va 48-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Investisiyalar, eksport, savdo, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari kotibiyatining 2024-yil 10-maydagi 04/1-595-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan hududiy, reproduktiv va institutsional omillar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashga erishiladi;

Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va shu turdagi tovar aylanmasini jadallashtirishga Yangiqo‘rg‘on tumanini qishloq xo‘jaligi tarmog‘i uchun kimyoviy elementlar va mineral xomashyo yetkazish, Pop tumanini magistral transport yo‘llarida savdo va logistika xizmatlari ko‘rsatish, Uchqo‘rg‘on tumanini baliqchilikka ixtisoslashtirish orqali erishish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-aprelda 211-son “2022–2026-yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori 2-illovasining tegishli bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Investisiyalar, eksport, savdo, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari kotibiyatining 2024-yil 10-maydagi 04/1-595-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va shu turdagi tovar aylanmasini jadallashtirishga erishiladi;

Namangan viloyati hududlarining demografik salohiyati, ishlab chiqarish imkoniyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mintaqada mahalliy oziq-ovqat bozorini rivojlantirishning 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyundagi PQ-273-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy indikatorlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Investitsiyalar, eksport, savdo, qishloq va suv xo‘jaligi masalalari kotibiyatining 2024-yil 10-maydagi 04/1-595-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy qilinishi natijasida mintaqada 2030-yilgacha bo‘lgan davrda mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining 1,3 baravar o‘shishiga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shundan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati jahondagi mavjud vaziyatdan kelib chiqib olib borilayotgan tadqiqotlar, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan asoslab berilgan. Uzoq xorij mamlakatlari, yaqin xorij mamlakatlari va O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarga havolalar keltirish asosida mahalliy oziq-ovqat bozorini takomillashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmaganligi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib vazifalar belgilangan. Tadqiqotning obyekti, predmeti va tadqiqot usullari tavsiflangan. Ilmiy yangiliklar va amaliy natijalar bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiya ishining “**Mahalliy oziq-ovqat bozori rivojlanishining nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida mahalliy oziq-ovqat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib beruvchi tadqiqotlar guruhlariga ajratilgan va zamonaviy yondashuvlar umumlashtirilgan, mahalliy oziq-ovqat bozoriga mustaqil takomillashgan mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan, hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning mahalliy oziq-ovqat bozori shakllanishi va rivojlanishiga ta’siri,

mintaqaviy bozor rivojlanishining xorij tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari ilmiy asoslangan.

Muallif fikricha, har qanday bozorning faoliyati ma’lum bir belgilangan manzildagi xaridor bilan bog‘langan. Demak, bozor mintaqa muomala sohasining o‘zaro ta’sir qiluvchi subyektlari tizimi bo‘lib, turli tashkiliy-huquqiy shakllarda harakat qiladi, ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni ta’minlaydi. Shu bois tadqiqotda mintaqaviy bozorni tadqiq etishga qaratilgan barcha yondashuvlarni umumlashtirish va guruhlash asosida mahalliy bozorlarning o‘ziga xos faoliyati bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Jumladan, mintaqaviy bozorlarning mahalliy bozorlardan iborat ierarxiyasi mavjudligi, mintaqaviy bozorlarda izolyatsiya mavjud emasligi va mahalliy bozorlarning o‘zaro aloqada ekanligi, mintaqaviy bozorlarning qo‘shni hududlardan xaridorlarni faol jalb qiladigan kuchli tomoni mahalliy darajada belgilanishi asoslangan.

Uzoq xorijiy mamlakatlarda mahalliy oziq-ovqat bozorining konsepsiyasi ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi geografik masofalar doirasida o‘zgarib turadi. Yaqin xorij mamlakatlarida mahalliy oziq-ovqat bozorlari hududiy, tovar, reproduktiv, institutsional jihatdan tavsiflanadi va shu asosda turli xil konsepsiyalar shakllanmoqda. O‘zbekistonda mahalliy oziq-ovqat bozorlarini rivojlantirish masalalariga kam sonli tadqiqotlar bag‘ishlangan va biror bir yo‘nalishdagi konsepsiya shakllanmagan.


Yuqoridagi nazariy tahlillarni to‘ldirgan holda muallif tomonidan mahalliy oziq-ovqat bozoriga quyidagicha ta’rif berilgan: “mahalliy oziq-ovqat bozori – bu hududning o‘ziga xos demografik xususiyatlari, geografik chegaralari, infratuzilmasi, narxlari, institutsional qoidalari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste’mol xususiyatlari bilan ajralib turadigan, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik va mintaqaning mustaqilligini saqlab qolish kafolati bo‘lgan makondir”. Shuningdek, mahalliy oziq-ovqat bozorini tovar, iqtisodiy, makon va takror ishlab chiqarish jihatidan o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Mahalliy oziq-ovqat bozorini mintaqa iqtisodiy makonining bir qismi sifatida harakatlanadigan chegaralari izohlangan. Shu asosda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha tabaqalanishi mintaqalarga qaraganda yuqoriligi aniqlangan. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdagi asosiy muammo – bir hudud duch keladigan qiyinchiliklar boshqasi uchun umuman ahamiyatga ega bo‘lmasligi asoslangan.

Ma’lumki, hududlarning ixtisoslashuvi bo‘yicha tasniflash mezonlari AQSH Qishloq xo‘jaligi departamentining iqtisodiy tadqiqotlar xizmati tomonidan “ikkinchi darajali ma’muriy-hududiy bo‘linish hujayralari” misolida taklif qilingan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, qishloq xo‘jaligining ma’muriy-hududiy mahsulotdagi ulushi va ushbu sohada band bo‘lganlarning ulushi kamida 15 foizni tashkil etishi kerak. Shuningdek, sanoatning ulushi 25 foiz va xizmatlar sohasi ulushi 45 foizdan iborat bo‘ladi.⁶ Ayrim yondashuvlarda sanoatning ulushi kamida

⁶ Cheong D., Jansen M., Peters R. Shared Harvests: Agriculture, Trade and Employment. – Geneva: UNCTAD, 2013. – pp. 225–228.

20 foizni tashkil etadi va boshqa tarmoqlarning ulushi 15 foizdan oshmaydi.⁷ Bunda, mintaqa hududlarida bir nechta tarmoqlarning “birgalikda yashash” imkoniyati hisobga olingan.

Demak, mintaqaning ixtisoslashuvi mahalliy bozorlar rivojlanish holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik mahalliy bozorlar shakllanishi va rivojlanishining obyektiv qonuniyati hisoblanadi. Shu bois tadqiqotda mintaqa hududlarini asosiy zona, o‘shish zonasi, yangi rivojlanish zonasi va depressiv zonaga ajratish orqali mahalliy oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanish imkoniyatlari ochib berilgan (1-rasm).



1-rasm. Hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar sharoitida mahalliy oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishi⁸

Muallif fikricha, mahalliy oziq-ovqat bozoriga sinergetik (hamkorlik) samaraga hissa qo‘shadigan va mavjud rivojlantirish yo‘nalishlarining obyektiv imkoniyatlarini belgilaydigan shart-sharoitlar sifatida qaralishi kerak. Shu bois turli xil ixtisoslashgan hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari hajmini ko‘paytirish mintaqaning rivojlantirish siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etishi kerak. Shuning natijasida mahalliy oziq-ovqat bozorlarining tabaqalashtirilgan rivojlanishini uyg‘unlashtirish va o‘shish qutblarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

⁷ Зайнутдинов Р.Р. Антикризисное развитие моноотраслевых регионов России (Монография). – М.: Мир науки, 2015. – С. 29.

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Albatta, hududiy qutblanishning namoyon bo'lishi bilan aholining hayot sifati va uning daromadlarida farqlarning vujudga kelishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Aholining daromadlari mahalliy oziq-ovqat bozorida iste'mol talabining asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qilishini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan rivojlanishni hududiy qutblanish bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, birinchi navbatda, rivojlangan hududlarda oziq-ovqat mahsulotlarini mavjud aholi talabidan yuqori hajmlarda ta'minlash va keng assortimentni shakllantirish, zamonaviy shakldagi logistika va yuqori sifatli xizmat ko'rsatish tarmog'ini joriy etish, mintaqaning barcha hududlari aholisining xarid imkoniyatlariga teng shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Agar oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotida import kuzatilsa, ichki manbalarni faollashtirish asosida mahalliy mahsulotlarning import qilinadigan mahsulotlarga nisbatan raqobatbardoshligini oshirish kerak bo'ladi. Bunda o'sish qutblari resurslarni chekka hududlardan tortib oladi va mazkur hududlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun ma'lum imkoniyatlar yaratadi. Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishni hisobga olgan holda mintaqadagi mahalliy oziq-ovqat bozorlarining rivojlantirish imkoniyatlarini baholash o'sish qutbi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ochib beradi.

Muallif fikricha, barcha tarmoqlar bir tekisda rivojlangan mintaqaning o'zi yo'q. Shu jihatdan hududiy qamrov mahalliy oziq-ovqat bozorlarini tasniflashning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Bunda mahalliy oziq-ovqat bozorlarini tadqiq etishda alohida hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradigan tizimli yondashuv talab etiladi. Bu holat mintaqahududlarining kuchli va zaif tomonlarini ochib berish imkonini beradi.

Mahalliy oziq-ovqat bozoridagi holat mintaqaning boshqa hududlaridagi bozorlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Shu bois tadqiqotda mahalliy oziq-ovqat bozorini tadqiq etishning tizimli tahlil usuli integral ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga imkon bergan va bunda hududiy omillar hisobga olingan. Alohida hudud kesimida ma'lumotlar taqqoslangan va mavjud tafovutlar sabablari tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "**Mintaqada mahalliy oziq-ovqat bozorining holati va rivojlanish tendentsiyalari**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda mahalliy oziq-ovqat bozori rivojlanishining tashkiliy-institutsional asoslari, unga ta'sir etuvchi iqtisodiy-demografik omillar, sohada mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan.

Namangan viloyati misolida oziq-ovqat bozorining rivojlanishi mazkur sohani tartibga soluvchi tashkiliy va institutsional tizimlarning rivojlanganligiga bevosita bog'liqligi, Namangan viloyatida oziq-ovqat bozorining tashkiliy tuzilmasi ko'p bosqichli tarmoqlardan tashkil topganligi keltirilgan va tabiiy resurslarni o'zlashtirish imkoniyatlari baholangan.

Namangan viloyatining umumiy yer maydoni 7,44 ming km.² dan iborat bo'lib, tekislik qismi 60,0 foiz, adirlar 20,5 foiz va tog' hududi 19,5 foizni tashkil etadi. Asosiy tekisliklar Uchqo'rg'on (0,30 ming km.²), Norin (0,21 ming km.²), Mingbuloq (0,74 ming km.²) tumanlarida hamda Pop tumanining bir qismida (1,30 ming km.²) kuzatiladi. Adirlar ulushi yuqori hududlar qatoriga Pop (23,4 foiz), Yangiqo'rg'on (20,8 foiz), Chust (16,2 foiz), Kosonsoy (14,9 foiz) va Chortoq

(13,6 foiz) tumanlari kiradi. Shuningdek, mazkur tumanlarda tog' hududlari ham shakllangan. Mazkur holat Namangan viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida o'z aksini topgan va tabiiy resurslarni o'zlashtirish imkoniyatlari bo'yicha tumanlar bir-biridan farq qiladi. Ayniqsa, adirlar hududining ulushi yuqori bo'lgan tumanlarda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va hosildorligida doimiy past ko'rsatkichlar saqlanib qolmoqda (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyatining yer usti tuzilishida tekislik, adir va tog' hududlarining ulushi (2023-yil)⁹

№	Tumanlar	Umumiy maydoni	SHu jumladan		
			Tekislik	Adir	Tog'
1	Namangan shahri	1,7	2,7	0,6	0
2	Kosonsoy	7,0	4,3	14,9	6,9
3	Mingbuloq	10,1	16,6	0	0
4	Namangan	2,8	3,8	2,6	0
5	Norin	2,8	4,7	0	0
6	Pop	39,2	29,2	23,4	86,2
7	To'raqo'rg'on	3,6	4,7	3,9	0
8	Uychi	4,0	5,4	3,9	0
9	Uchqo'rg'on	4,0	6,7	0	0
10	Chortoq	5,1	3,1	13,6	2,1
11	Chust	12,6	14,6	16,2	2,8
12	Yangiqo'rg'on	7,1	4,0	20,8	2,1
	Jami	100	100	100	100

Namangan viloyatida qishloq xo'jalik yerlari 389,2 ming gektarni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida tahlil etilganda yuqori darajadagi tafovutlar kuzatiladi. Jumladan, qishloq xo'jalik yerlari tarkibida ekin yerlarining ulushi Mingbuloq tumanida 93,6, Norin tumanida 91,8 va Uchqo'rg'on tumanida 93,7 foizdan iborat. Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi va Chust tumanlarida ekin yerlarining ulushi 60-85 foizni tashkil etadi. Past ko'rsatkichga ega bo'lgan Namangan shahri, Kosonsoy, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari ichida Pop tumani 19,3 foiz ulush bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jalik yerlari tarkibida yaylovlarning yuqori ulushi Kosonsoy (31,6), Pop (77,2), Chortoq (30,7), Yangiqo'rg'on (29,2) tumanlarida kuzatiladi va umuman sug'orilmaydi.¹⁰

Namangan viloyatida sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 242,7 ming gektarni tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydonida Kosonsoy, Mingbuloq, Pop, Uchqo'rg'on, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlari yuqori ulushga ega. Namangan viloyatida sug'oriladigan yerlarning boniteti 2010-yilda o'rtacha 59 ball va 2023-yilda 57 balldan iborat bo'ldi. Hududlar kesimida yuqori ko'rsatkich (60-70 ball) Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on va Chortoq tumanlarida kuzatiladi. O'rtacha ko'rsatkich bo'yicha (50-59 ball) Kosonsoy, Chust

⁹ Kadastr agentligi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari.

va Yangiqo‘rg‘on tumanlari alohida ajralib turadi. Namangan shahri, Mingbuloq va Pop tumanlarida past ko‘rsatkichlar (40-49 ball) saqlanib qolmoqda. Shunga mos ravishda bonitet balli yuqori bo‘lgan hududlarda g‘alla hosildorligi 36-42 ts/ga.ni tashkil etmoqda (2-jadval).

2-jadval

Namangan viloyatida sug‘oriladigan yerlarning o‘rtacha bonitet ballari va g‘alla hosildorligi¹¹

№	Tumanlar	Jami sug‘orma yerlar, ga.	O‘rtacha bonitet ball		G‘alla hosildorligi, ts/ga.
			2010-y.	2023- y.	
1	Namangan shahri	546	-	43	25,8
2	Kosonsoy	20736	57	58	34,8
3	Mingbuloq	35567	45	49	29,4
4	Namangan	15281	60	61	36,6
5	Norin	13261	65	67	40,2
6	Pop	35186	47	48	29,0
7	To‘raqo‘rg‘on	15231	62	60	36,3
8	Uychi	18061	63	64	38,4
9	Uchqo‘rg‘on	21074	68	70	42,0
10	Chortoq	15956	60	61	36,7
11	Chust	28483	50	51	31,0
12	Yangiqo‘rg‘on	23361	55	57	34,2
	Viloyat bo‘yicha	242743	59	57	34,2

Namangan viloyati hududlarining tabiiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi aholi joylashuviga ta’sir etgan. Shu bois tadqiqotda yer resurslari miqdori, aholi joylashuvi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi majmual holida tahlil qilingan. Shuningdek, aholi joylashuviga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanish balansi ishlab chiqilgan. Jumladan, Yangiqo‘rg‘on tumanida kartoshka, sabzavot, meva va uzum mahsulotlarida balans indeksi 2 va undan yuqori bo‘lgan ko‘rsatkichga ega. Poliz mahsulotlarida Mingbuloq va Norin tumanlari, tuxum ishlab chiqarishda Kosonsoy va Namangan tumanlari yetakchilik qiladi. Go’sht va sut ishlab chiqarishda birorta ham tuman yuqori ko‘rsatkichga ega emas. Go’sht bo‘yicha bu ko‘rsatkich Namangan shahri, Kosonsoy, Namangan, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Choptoq, Chust tumanlarida 0-1 gacha, sut bo‘yicha Namangan shahri, Kosonsoy va Uychi tumanlarida 0-1 gachani tashkil etadi. Tuxum ishlab chiqarishda Kosonsoy va Namangan tumanlari 2 dan yuqori ko‘rsatkich bilan yetakchilik qiladi. Bu yerda balans indeksi ko‘rsatkichlari 0-1 gacha teng bo‘lgan hududlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash muammosi mavjudligini bildiradi. Balans indeksi 1-2 gacha bo‘lgan hududlarda aholi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlangan va qisman zaxiraga ega, balans indeksi 2 va undan yuqori bo‘lgan tumanlarda oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasi yuqoriligini bildiradi (3-jadval).

¹¹ Kadastr agentligi Namangan viloyati boshqarmasi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Namangan viloyati hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning aholiga nisbatan balans indeksining guruhlanishi¹²

Mahsulot turlari	Balans indeksi	Tumanlar
Kartoshka	2 dan yuqori	Yangiqo‘rg‘on
	1-2 gacha	Namangan, Norin, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chust
	0-1 gacha	Namangan shahri, Kosonsoy, Mingbuloq, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uychi
Sabzavot	2 dan yuqori	Yangiqo‘rg‘on
	1-2 gacha	Namangan, Norin, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Chortoq
	0-1 gacha	Namangan shahri, Kosonsoy, Mingbuloq, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Chust
Poliz	2 dan yuqori	Mingbuloq, Norin
	1-2 gacha	Namangan, Pop, Uchqo‘rg‘on
	0-1 gacha	Namangan shahri, Kosonsoy, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Chortoq, Chust, Yangiqo‘rg‘on
Meva	2 dan yuqori	Yangiqo‘rg‘on
	1-2 gacha	Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Chortoq, Chust
	0-1 gacha	Namangan shahri, Kosonsoy, Mingbuloq, Norin, Pop, Uychi, Uchqo‘rg‘on
Uzum	2 dan yuqori	To‘raqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on
	1-2 gacha	Namangan, Uychi, Chortoq
	0-1 gacha	Namangan shahri, Kosonsoy, Mingbuloq, Norin, Pop, Uchqo‘rg‘on, Chust
Go‘sh	2 dan yuqori	–
	1-2 gacha	Mingbuloq, Norin, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on
	0-1 gacha	Namangan shahri, Kosonsoy, Namangan, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Chortoq, Chust
Sut	2 dan yuqori	–
	1-2 gacha	Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chust, Yangiqo‘rg‘on
	0-1 gacha	Namangan shahri, Kosonsoy, Uychi
Tuxum	2 dan yuqori	Kosonsoy, Namangan
	1-2 gacha	Pop, To‘raqo‘rg‘on, Uychi
	0-1 gacha	Namangan shahri, Mingbuloq, Norin, Uchqo‘rg‘on, Chortoq, Chust, Yangiqo‘rg‘on

Tadqiqot ishida hisoblab chiqigan ishlab chiqarish hajmini aholining minimal iste‘mol me‘yorlariga nisbatan koeffitsiyent ko‘rsatkichlari hududlarning o‘zini-o‘zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash imkoniyatlarini ochib bergan. 2018–2023-yillar davomida kartoshka ishlab chiqarishning 1 dan past koeffitsiyent ko‘rsatkichlari Namangan shahri (0,005-0,006), Kosonsoy (0,620-0,632), Pop (0,759-0,849) va Uychi (0,864-0,658) tumanlarida kuzatiladi. Eng yuqori





¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

koefitsiyent ko'rsatkichi bo'yicha Yangiqo'rg'on (5,522-7,058) tumani alohida ajralib turadi. Tadqiqot ishida shu tartibda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari uchun ta'minlanish koefitsiyent ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan (4-jadval).

4-jadval

Namangan viloyati hududlarida kartoshka bilan ta'minlanish koefitsiyenti va ta'minot darajasidagi farq¹³

Tumanlar	2018-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	Ta'minot darajasidagi farq, “-”, “+” ming tonna				
						2018	2020	2021	2022	2023
Namangan sh.	0,005	0,007	0,007	0,002	0,006	-41,4	-43,2	-44,7	-46,0	-47,1
Kosonsoy	0,620	0,642	0,615	0,621	0,632	-5,3	-5,2	-5,7	-5,7	-5,7
Mingbuloq	0,777	0,859	0,897	0,899	1,074	-1,9	-1,2	-0,9	-0,9	0,7
Namangan	1,154	1,757	2,008	1,547	1,931	1,8	9,4	12,6	7,0	12,2
Norin	1,697	1,931	2,085	1,995	1,999	7,6	10,5	12,5	11,7	11,9
Pop	0,759	0,766	0,752	0,820	0,849	-3,5	-3,5	-3,8	-2,8	-2,4
To'raqo'rg'on	1,107	1,253	1,499	1,725	1,847	1,6	4,0	7,9	11,8	14,1
Uychi	0,864	0,868	0,867	0,595	0,658	-1,9	-1,9	-2,0	-6,2	-5,4
Uchqo'rg'on	1,950	2,232	2,444	2,574	2,459	10,9	14,6	17,5	19,4	18,4
Chortoq	1,602	1,927	1,898	2,209	2,491	8,0	12,8	12,6	17,3	21,8
Chust	1,801	1,933	1,977	1,614	1,648	14,1	17,1	18,2	11,7	12,6
Yangiqo'rg'on	5,522	6,358	6,270	6,336	7,058	65,4	80,8	81,3	84,2	97,7
Viloyat bo'yicha	1,297	1,482	1,209	1,497	1,618	55,5	94,0	41,7	101,3	128,8

Yuqoridagi tahlillar asosida Namangan viloyati hududlarida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishga qaratilgan takliflarni jadval va belgilar orqali ifodalash mumkin. Bu yerda  – belgisi boshqa hududlar hisobiga aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash,  – belgisi ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish,  – belgisi saqlash va qayta ishlash korxonalarini tashkil etish hamda  – belgisi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini rivojlantirish imkoniyatlarini yuqori ekanligini ifodalaydi. Jumladan, Namangan shahrida aholini boshqa hududlar hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi tabiiy hol hisoblanadi. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bir hududdan ikkinchisiga o'tishi mintaqaning asosiy xususiyatlarini namoyon etadi. Bundan tashqari, mintaqaning o'sish qutbining mavjudligi aholining jon boshiga daromadlari va hayot sifati, sotib olish qobiliyati va boshqalarda hududlararo farqlarga olib keladi. Aholining daromadlari mahalliy oziq-ovqat bozorlarida iste'mol talabining asosiy omillaridan biri hisoblanadi va hududlararo farqlar vujudga keladi. Shu bois

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bozorlarning tabaqalashgan holda rivojlanishi tabiiy hol hisoblanadi va hududiy qutblanish bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda Namangan shahriga yetkazib berilayotgan va shahar atrofidagi tumanlarda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari qayta ishlash sanoatini rivojlantirishda muhim zaxira hisoblanadi. Mavjud zaxiralardan foydalangan holda shahar hududida quritilgan va qayta ishlangan meva-sabzavot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ko'plab loyihalarni amalga oshirish mumkin (5-jadval).

5-jadval

Namangan viloyati hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishning shartli belgilari¹⁴

Tumanlar	Kartoshka	Sabzavot	Poliz	Meva	Uzum	Go'sht	Sut	Tuxum
Namangan sh.	●	●	●	●	●	▲	●	●
Kosonsoy	●	●	●	●	▲	▲	▲	■
Mingbuloq	●	▲	■	●	●	▲	▲	●
Namangan	▲	▲	▲	▲	▲	▲	▲	■
Norin	▲	▲	▲	▲	●	▲	▲	●
Pop	●	▲	▲	▲	●	▲	▲	▲
To'raqo'rg'on	▲	▲	▲	▲	▲	▲	▲	■
Uychi	●	▲	▲	▲	▲	▲	●	▲
Uchqo'rg'on	▲	▲	▲	●	▲	▲	▲	●
Chortoq	▲	▲	▲	■	▲	●	▲	●
Chust	▲	▲	▲	▲	▲	▲	■	●
Yangiqo'rg'on	■	■	●	■	■	▲	■	●

Umuman olganda, Namangan viloyatining har bir tumani ishlab chiqarish imkoniyatlari, infratuzilma darajasi, investitsion jozibadorligi va aholining bandlik ko'rsatkichlari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Shu bois, muallif fikricha, mahalliy oziq-ovqat bozorini mavjud iqtisodiy mexanizmini differensial yondashuv asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi. Bunda "asosiy zona" (Namangan shahri, Yangi Namangan, Davlatobod tumanlari) ishlab chiqarish va iste'mol markazi sifatida yetakchi o'rin tutadi. Shu sababli bu yerda subsidiya mexanizmi ko'proq innovatsion texnologiyalarni joriy etish, logistika markazlarini rivojlantirish va yirik qayta ishlash korxonalarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. "O'sish zonasi" (To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on tumanlari) ishlab chiqarish hajmi oshayotgan, lekin hali to'liq salohiyatdan foydalanilmagan tumanlar hisoblanadi. Shu bois, subsidiya mexanizmi, asosan, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, kooperatsiya asosida fermer va dehqon xo'jaliklarini integratsiyalash va bozor infratuzilmasini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Yangi rivojlanish zonasi”da (Kosonsoy, Pop, Chortoq tumanlari) tabiiy va mehnat resurslari mavjud bo‘lsa-da, oziq-ovqat bozorida salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan hududlar hisoblanadi. Bu yerda subsidiya paketlari, asosan, kichik va o‘rta korxonalarni rag‘batlantirish, startap va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, meva-sabzavotchilik, chorvachilik va qayta ishlash tarmoqlariga sarmoya jalb qilishga yo‘naltirilishi kerak. “Depressiv zona” (Mingbuloq tumani) iqtisodiy jihatdan orqada qolgan, ishlab chiqarish resurslari yetarli darajada ishlatilmagan hududdir. Bu yerda subsidiyalar, asosan, asosiy infratuzilmani tiklash, bandlikni ta‘minlash, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirilgan qo‘llab-quvvatlashga qaratilmog‘i lozim.


Mazkur yondashuvda tabaqalashtirilgan subsidiyalar paketi orqali ishlab chiqarish resurslari hududlarga optimal taqsimlanadi, iqtisodiy o‘sishda hududlararo muvozanat vujudga keladi, oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi va depressiv hududlarda iqtisodiy jonlanish ta‘minlanadi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Mintaqada oziq-ovqat bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlanib, unda mahalliy oziq-ovqat bozori orqali mintaqaning iqtisodiy o‘sish nuqtalarini faollashtirish imkoniyatlari asoslangan, mintaqada hududlarida mahalliy oziq-ovqat bozorini rivojlantirish prognozlari va uning muqobil ssenariylari ishlab chiqilgan.

Mazkur tadqiqot ishida mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududiy, reproduktiv va institutsional omillar o‘rtasida mutanosiblikni ta‘minlash taklifi asoslangan. Jumladan, muallif fikricha, To‘raqo‘rg‘on tumani iqlim va suv resurslari jihatidan meva-sabzavotchilikni rivojlantirish uchun qulay bo‘lib, bu yerda klaster shaklida integratsiya qilingan ishlab chiqarish va qayta ishlash tizimini tashkil etish maqsadga muvofiq. Uchqo‘rg‘on va Norin tumanlarida esa yer va tuproq sharoiti g‘allachilikka mos kelib, g‘allachilik klasteri ichki bozor barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanishini ta‘minlaydi. Klasterlar to‘liq qiymat zanjirini qamrab olib, mehnat unumdorligini oshiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlaydi. Shu bilan birga, dronlar, suv tejoychi tizimlar va raqamli monitoring kabi innovatsion agrotexnologiyalar samaradorlik va sifatni kafolatlaydi. Institutsional jihatdan, klasterlar fermerlar, qayta ishlovchi korxonalar va logistika markazlari hamkorligini kuchaytiradi, davlat-xususiy sheriklik rivojiga zamin yaratadi. Natijada, yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyati ortadi va aholini oziq-ovqat bilan barqaror ta‘minlash imkoni yaratiladi.

Shuningdek, tadqiqot ishida Namangan viloyatining hududiy o‘sish nuqtalari o‘rtasida mustahkam iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish uchun Namangan shahri tanlab olingan. Chunki Namangan shahrida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo‘yicha meva-sabzavot va go‘sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash yo‘nalishida ishlatilmagan imkoniyatlar va foydalanilmagan katta salohiyat mavjud. Bu holat qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha ko‘plab loyihalarni amalga oshirish hisobiga ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkoniyatini beradi. Jumladan, “Namangandon mahsulotlari” AJ, “Nestle-O‘zbekiston” QK va shu

kabi boshqa yirik sanoat korxonalarini tashkil etish hisobiga o‘shish nuqtalari aniqlangan. Bunda Namangan shahri atrofidagi hududlarning ixtisoslashuv belgilaridan kelib chiqib, iqtisodiy o‘shishning xarakterli nuqtalarida tabiiy resurslardan majmualiy foydalanishga imkon beradigan va infratuzilma obyektlari bilan birgalikda texnologik zanjirni yaratadigan sanoat tugunlariga alohida ahamiyat berilgan. O‘shish nuqtalarini faollashtirish klasterlar va texnoparklarni yaratish bilan bog‘liqligini e‘tiborga olib, moliyaviy oqimlarning yuqori konsentratsiyasiga ega bo‘lgan hududlar tanlab olingan. Lekin Namangan, To‘raqo‘rg‘on va Uychi tumanlarida yuqoridagi shartlarning mavjud emasligi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish imkoniyatlarining cheklanganligi o‘shish nuqtasi sifatida belgilangan yirik korxonalarining mablag‘lariga tayanishga olib keladi. Shuningdek, mavjud mintaqaviy boshqaruv mexanizmlari yordamida o‘shish nuqtalarini faollashtirish mumkin bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Namangan shahrida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning o‘shish nuqtasi¹⁵

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yangiqo'rg'on tumanida kartoshka, sabzavot, meva, uzum va sutning eksport salohiyatining yuqoriligi o'sish nuqtasi sifatida tanlashga imkon bergan. Bu yerda agrokimyو sanoatini rivojlantirish qishloq xo'jaligi uchun zarur o'g'itlar va kimyoviy moddalarning uzluksiz yetkazilishini ta'minlab, hosildorlikni va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda o'sish nuqtasining atrofga tarqalishi Kosonsoy va Chortoq tumanlarini qamrab oladi. Magistral yo'li savdo shaxobchalari va logistika markazlarini tashkil etish bilan Namangan shahrini bog'lashda Pop tumani o'sish nuqtasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'sish nuqtasining hududiy qamrovi Mingbuloq va Chust tumanlarida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga qaratilgan. Uchqo'rg'on tumanida klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yish, baliqchilik kooperatsiyasini joriy etish orqali aholining go'sht va boshqa konserva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish imkoniyatini yuqori hisoblab o'sish nuqtasi sifatida tanlanishi Uychi va Norin tumanlarini qamrab oladi. Ular tomat pastasi, baliq mahsulotlari, salqin ichimliklar va gostronomik turizmni rivojlantirish bo'yicha yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish mumkinligi bilan ajralib turadi. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish hududlarni rivojlantirishda yuqori tabaqalanishni oldini olish, klaster tuzilmalarini yaratish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Muallif fikricha, yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun Namangan viloyati hududlarida qulay investitsiya muhiti va mukammal ishlaydigan moliyaviy mexanizmni yaratish talab qilinadi. Bunda moliyaviy mexanizmni hududning rivojlanishida hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni bajarishga mos keladigan tarzda ishlab chiqilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, investorlar kapitalini to'playdigan yetarli miqdordagi "o'sish nuqtalari" mavjud bo'lgan taqdirdagina hududlarni faol rivojlanish tendensiyasini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, "o'sish nuqtalari" oqilona joylashgan tarmoqlar bo'lib, ular ma'lum bir hududda sanoat markazlarining paydo bo'lishi va iqtisodiy o'sishning zanjirli reaksiyasini keltirib chiqaradi. Shu asosda Namangan viloyati hududlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin bo'ladi: qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan hududlar; funksional o'zgarishga ega hududlar; rivojlanayotgan hududlar. Bunday guruhlashdan foydalanish mintaqaviy rivojlanishda davlat siyosatini tegishli sohaga yo'naltirishni ta'minlaydi. Ayniqsa, kapitalni ko'p talab qilmaydigan investitsion loyihalarni amalga oshirishga, byudjet subsidiyalari miqdorini kamaytirishga va mintaqa hududlarining rivojlanish darajasidagi bo'shliqlarni kamaytirishga imkon beradi. Shu bois tadqiqot ishida mahalliy oziq-ovqat bozorlarining rivojlanishini prognozlash mintaqaviy rivojlanishning strategik ko'rsatkichlariga bog'langan. Murakkab iqtisodiy tizim bo'lgan mahalliy oziq-ovqat bozorining istiqbollarni asoslash uchun tizimli yondashuvdan foydalanilgan. Jumladan, prognozlashda birinchi ssenariy retrospektiv tahlilga asoslangan bo'lib, Namangan viloyati hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2025–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari inersion variantda vaqt omili

bo'yicha hisoblangan. Bunda ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga sabab bo'lgan omil va manbalar avvaldan amal qilgan darajada qolgan. Mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham amaldagi darajada rivojlanadi, deb faraz qilingan (6-jadval).

6-jadval

Birinchi ssenariy: Namangan viloyati hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning retrospektiv prognozlari (ming tonna)¹⁶

Mahsulot turi	2010–2023-yillarda o'rtacha ko'rsatkich	Haqiqat-da	Prognoz ko'rsatkichlari			
		2023-yil	2025-yil	2026-yil	2028-yil	2030-yil
Kartoshka	269,8	337,3	365,0	392,0	419,7	446,7
Sabzavot	841,8	989,4	1077,5	1164,9	1252	1340,3
Poliz	99,0	134,5	152,4	171,0	188,9	206,5
Meva	286,5	366,5	411,8	456,7	505,8	554,3
Uzum	127,8	152,7	167,0	181,7	197,2	210,9
Go'sht	155,1	175,9	186,7	201,8	217,6	237,7
Sut	718,3	774,3	802,7	832,7	868,7	896,3
Tuxum (mln. dona)	597,6	676,4	727,1	780,5	834,4	887,8

Ikkinchi ssenariyda ishlab chiqarish hajmini kelajakdagi aholi sonining minimal iste'mol me'yorlariga nisbati bo'yicha prognozlash ishlari amalga oshirilgan. Buning uchun Namangan viloyati hududlarida aholi soni o'sishining iqtisodiy-matematik jihatdan demografik statistika va matematik statistikaning eng kichik kvadratlar usulini qo'llab, vaqtga nisbatan funksiya tanlab olingan va aholi sonining prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan.

Aholining prognoz ko'rsatkichlari asosida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishning minimal iste'mol me'yorlari hisoblangan. Masalan, 2025-yilda Namangan shahri aholisi 743,3 ming kishini tashkil etadi. 1 kishi uchun kartoshkaning yillik minimal iste'mol me'yorlari 68 kg.dan iborat. Demak, aholining prognoz ko'rsatkichlaridan kelib chiqilganda, 2025-yilda kartoshka ta'minoti Namangan shahrida 50,5 ming tonna, 2026-yilda 51,5 ming tonna, 2027-yilda 52,5 ming tonna, 2028-yilda 53,4 ming tonna, 2029-yilda 53,9 va 2030-yilda 54,4 ming tonnadan iborat bo'lishi kerak. Shunga mos ravishda sabzavot ta'minotida 132,3, 134,8, 137,3, 139,8, 141,1 va 142,3 ming tonna,

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

go'sht ta'minotida 34,3, 35,0, 35,6, 36,3, 36,6 va 36,9 ming tonnani tashkil etadi. Shuningdek, 2025-yilda Namangan viloyati aholisi 3205,7 ming kishini tashkil etadi va Namangan viloyatida 2025-yilda kartoshka ta'minoti 218,0 ming tonna, 2026-yilda 221,2 ming tonna, 2027- yilda 224,4 ming tonna, 2028-yilda 227,7 ming tonna, 2029-yilda 229,3 ming tonnava 2030-yilda 230,9 ming tonnadan iborat bo'lishi kerak. Shunga mos ravishda sabzavot ta'minotida 570,6, 579,1, 587,5, 596,0, 600,3 va 604,5 ming tonna, go'sht ta'minotida 148,1, 150,3, 152,5, 154,7, 155,8 va 156,9 ming tonnani tashkil etadi (7-jadval).

7-jadval

Ikkinchi ssenariy: Namangan viloyati hududlarida aholining minimal iste'mol me'yorlari asosida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish prognozlari (ming tonna)¹⁷

Mahsulot turi	Prognoz ko'rsatkichlari						2030-yilda 2025-yilga nisbatan, foiz
	2025-yil	2026-yil	2027-yil	2028-yil	2029-yil	2030-yil	
Kartoshka	218,0	221,2	224,4	227,7	229,3	230,9	105,9
Sabzavot	570,6	579,1	587,5	596,0	600,3	604,5	105,9
Poliz	68,9	69,9	71,0	72,0	72,5	73,0	106,0
Meva	240,4	244,0	247,5	251,1	252,9	254,7	105,9
Uzum	49,4	50,1	50,8	51,6	51,9	52,3	105,9
Go'sht	148,1	150,3	152,5	154,7	155,8	156,9	105,9
Sut	701,7	712,2	722,5	732,9	738,2	743,4	105,9
Tuxum (mln. dona)	660,4	670,2	679,9	689,7	694,7	699,6	105,9

Uchinchi ssenariyda mahalliy oziq-ovqat bozorlarining istiqboldagi kon'yunkturasini baholash maqsadida birinchi va ikkinchi ssenariy prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning kelajakdagi aholi soni va uning minimal iste'mol byudjeti me'yorlariga nisbati bo'yicha ta'minot koeffitsientini aniqlangan. Bunda ikkinchi ssenariy prognoz ko'rsatkichlaridagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini aholi sonining minimal iste'mol byudjeti me'yorlariga nisbati bo'yicha koeffitsiyentini 1,0 ga tenglashtirib olingan va birinchi ssenariy prognoz ko'rsatkichlariga taqqoslagan holda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning mavjud zaxiralaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Uchinchi ssenariyda ishlab chiqarish xajmini aholi sonining minimal iste'mol byudjeti me'yorlariga nisbati bo'yicha koeffitsient 1 ga teng bo'lsa to'liq o'zini o'zi ta'minlaganlikni, 1 dan past koeffitsient mahsulot yetarli emasligini va 1 dan yuqorisi mahsulotning ortiqchaligini bildiradi (8-jadval).

8-jadval

Uchinchi ssenariy: Namangan viloyati hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash koeffitsiyenti va ta'minot darajasi prognozlari¹⁸

Mahsulot turi	Ta'minlash koeffitsiyenti				Ta'minot darajasidagi farq ("–", "+” ming tonna)			
	2025-yil	2026-yil	2028-yil	2030-yil	2025-yil	2026-yil	2028-yil	2030-yil
Kartoshka	1,674	1,772	1,843	1,935	147,0	170,8	192,0	215,8
Sabzavot	1,888	2,012	2,101	2,217	506,9	585,8	656,0	735,8
Poliz	2,212	2,446	2,624	2,829	83,5	101,1	116,9	133,5
Meva	1,713	1,872	2,014	2,176	171,4	212,7	254,7	299,6
Uzum	3,381	3,627	3,822	4,033	117,6	131,6	145,6	158,6
Go'sht	1,3	1,3	1,4	1,5	38,6	51,5	62,9	80,8
Sut	1,1	1,2	1,2	1,2	101	120,5	135,8	152,9
Tuxum (mln. dona)	1,1	1,2	1,2	1,3	66,7	110,3	144,7	188,2

Mazkur hisoblangan koeffitsiyent ko'rsatkichlari aholining minimal iste'mol byudjeti me'yorlariga nisbatan Namangan viloyati hududlarining quyidagi ta'minot darajasini belgilab beradi:

2025–2030-yillarda kartoshka yetishtirishning ortiqcha miqdorlari Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Chortoq va Chust tumanlarida kuzatiladi. Yangiqo'rg'on tumanida yuqori koeffitsiyent ko'rsatkichi (7,405-8,775) hisobiga 2025-yilda 107,6 ming tonna va 2030-yilda 138,4 ming tonna eksport imkoniyati mavjud. Shuningdek, kartoshka ishlab chiqarish koeffitsiyenti 1,0 dan past bo'lgan hududlar Namangan shahri, Kosonsoy, Pop va Uychi tumanlari hisoblanadi;

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sabzavot mahsulotlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi Namangan shahri va Kosonsoy tumanidan tashqari barcha hududlarda qayta ishlash korxonalarini joylashtirish va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

Namangan shahri va Chortoq tumanida aholini go'sht mahsulotlari bilan ta'minlash koeffitsiyenti 1,0 dan past bo'lib, mahsulotning yetishmasligini bildiradi. Bu esa aholi sonining o'sishi hisobiga 2025–2030-yillarda go'sht mahsulotlari bilan bu hudud o'zini-o'zi ta'minlay olmasligini ifodalaydi;

Kosonsoy, Namangan, To'raqo'rg'on va Uychi tumanlarida tuxum yetishtirishning ta'minot darajasida yuqori ko'rsatkichlar saqlanib qoladi. Qolgan tumanlarda esa aholining minimal iste'mol me'yorlariga nisbatan tuxum yetishmasligi kuzatiladi.

2025–2030-yillarda Namangan shahri aholisini ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining barcha turlari bilan ta'minlash koeffitsiyenti 1,0 dan past ko'rsatkichga ega bo'lib, mahsulotning taqchilligini bildirmoqda. Bu holat Namangan shahri aholisi sonining jadal ko'payishi, iste'mol hajmining tobora kengayishi bilan izohlanadi. Shu bois, shahar kelgusi yillarda yirik iste'mol markazi sifatida shakllanishi tabiiy jarayondir. Namangan shahri kelajakda ichki iste'mol talabining yuqori bo'lishi bilan nafaqat viloyat, balki qo'shni viloyatlardan ham mahsulot oqimini jalb qiluvchi yirik "iste'mol o'chog'i" sifatida shakllanib boradi.

Tadqiqot ishida aniqlangan prognoz ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatining agrar sektori mintaqada ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining barcha turlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash uchun yetarli salohiyatga ega. Mintaqa mahalliy bozorlarini rivojlantirishdagi navbatdagi vazifalar qayta ishlash korxonalarining imkoniyatlarini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari turlarini kengaytirish, oziq-ovqat sifatini oshirish va uning narxini pasaytirishdan iborat bo'ladi.

Namangan viloyatida mahalliy oziq-ovqat bozorining istiqboldagi rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida va ijtimoiy hayotida yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Jumladan, demografik vaziyatning o'zgarishi, yer resurslari holati va ulardan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalanish darajasi, aholi ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni bartaraf etish, ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalanish holati, ichki va tashqi bozordagi ishtirok etish ko'rsatkichlari, agrosanoat majmuasini intensivlash jarayonlari Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga kuchli ta'sir etadi va mahalliy oziq-ovqat bozorini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilab beradi.

Namangan viloyatida mahalliy oziq-ovqat bozorining samarali faoliyatini amalga oshirishning istiqbolga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri belgilash va uning hayotiy bo'lishi hududlar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa har bir hudud uchun mos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni olib borishga imkoniyat yaratadi.

XULOSA

Mahalliy oziq-ovqat bozorini tadqiq etish jarayonida uning Namangan viloyatida amal qilish mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1. Mahalliy oziq-ovqat bozori – bu hududning o‘ziga xos demografik xususiyatlari, geografik chegaralari, infratuzilmasi, narxlari, institutsional qoidalari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste‘mol xususiyatlari bilan ajralib turadigan, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik va mintaqaning mustaqilligini saqlab qolish kafolati bo‘lgan makondir.

2. Mintaqa hududining notekis rivojlanishi bilan iqtisodiy makonning qutblanishi va ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishning kuchayishi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Shunga mos ravishda aholining zichligi va turmush darajasi, migratsiya va boshqa demografik jarayonlarning hududiy notekisligi mahalliy bozorlarning tabaqalashgan holda rivojlanishi uchun tabiiy shart-sharoitlar yaratadi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanishni hisobga olgan holda mahalliy oziq-ovqat bozorini muvozanatli rivojlantirish masalalariga doimiy e‘tibor qaratishni taqozo etadi.

3. Namangan viloyati tumanlarining ishlab chiqarish imkoniyatlari, infratuzilma darajasi, investitsion jozibadorligi va aholining bandlik ko‘rsatkichlari jihatidan bir-biridan farqli ekanligidan kelib chiqib, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi sifatida subsidiyalar paketini “asosiy zona”, “o‘sish zonasi”, “yangi rivojlanish zonasi” va “depressiv zona”larga differensial yondashuv asosida qo‘llash maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuvda ajratiladigan subsidiyalar paketi orqali ishlab chiqarish resurslari tumanlar bo‘yicha optimal taqsimlanadi, iqtisodiy o‘sishda hududlararo muvozanat vujudga keladi, oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi va depressiv hududlarda iqtisodiy jonlanish ta‘minlanadi.

4. Mintaqa oziq-ovqat bozorlarini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish jarayoni imitatsion bosqichlardan iborat bo‘lishi kerak. Bunda har bir bosqich keyingi bosqich uchun zamin hozirlashi va mintaqada mahalliy oziq-ovqat bozorlari o‘zaro bog‘langan holda rivojlanishi lozim.

5. Namangan viloyati hududlarining demografik rivojlanishi bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Aholi sonining o‘sish sur‘ati yuqori bo‘lgan hududlarda sug‘oriladigan yerlar to‘liq o‘zlashtirilgan. Shu jihatdan mintaqa oziq-ovqat bozorlarining rivojlanishida aholi zichligining qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishga mantiqan bog‘langanligini e‘tiborga olish maqsadga muvofiq.

6. Namangan viloyatida mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bilan hududiy, reproduktiv va institutsional omillar o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashga To‘raqo‘rg‘on tumanida meva-sabzavotchilik, Uchqo‘rg‘on va Norin tumanlarida g‘allachilik klasterlarini tashkil etilishi orqali erishish mumkin. Natijada mintaqada ichki bozor barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanishi ta‘minlanadi.

7. Mintaqada mavjud “o‘sish nuqtalari”ni faollashtirish bilan mahalliy

oziq-ovqat bozorlarini rivojlantirish salohiyati o'zgarishi mumkin. Namangan viloyatida mahalliy oziq-ovqat bozori rivojlanishining mavjud darajasi va mumkin bo'lgan daraja o'rtasidagi farqni aniqlash asosida mavjud salohiyatni amalga oshirish lozim. Shu bilan birga o'sish nuqtalarining yana bir shakli bo'lgan klaster konsepsiyasini ishlab chiqishda xalqaro mehnat taqsimoti nuqtayi nazaridan raqobatni rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni samarali hal qilishni ta'minlaydigan korxonalarni tashkil etish ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

8. Namangan viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va shu turdagi tovar aylanmasini jadallashtirish uchun Yangiqo'rg'on tumani qishloq xo'jaligi tarmog'i ishlab chiquvchilarining kimyoviy elementlar va mineral xom-ashyo resurslari ta'minotini yaxshilash, Pop tumani magistral transport yo'llarida savdo va logistika xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish, Uchqo'rg'on tumanida baliqchilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarni ko'paytirish maqsadga muvofiq.

9. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari tahlili natijalari Namangan viloyatining agrar sektori mintaqada ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarining turlari bilan o'zini-o'zi ta'minlash uchun yetarli demografik va tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Mahalliy oziq-ovqat bozori orqali iqtisodiy o'sish nuqtalarini faollashtirish vazifalarining sifatli amalga oshirilishi mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari turlarini kengaytirish, ishlab chiqarish hajmi hamda sifatini oshirish, uning narxini pasaytirish, oziq-ovqat mahsulotlarini chuqur qayta ishlash asosida korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirishni ta'minlaydi va mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.I.01.11 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ В НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕК**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

БАННОЕВ ШОКИРЖОН ШАРИПЖОНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ
ПРОДОВОЛЬСТВЕННОГО РЫНКА В РЕГИОНЕ
(на примере Наманганской области)**

08.00.12 – Региональная экономика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2023.2.PhD/Iqt3070 в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) на сайте Научного совета (www.nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:

Сотволдиев Нодирбек Джурабаевич
доктор экономических наук (DSc), доцент

Официальные оппоненты:

Рузметов Бахтиёр
доктор экономических наук, профессор

Умаров Сухроб Рустамович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:


Ташкентский государственный аграрный университет


Защита диссертации состоится в 14:00 часов 3 октября 2025 года на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.I.01.11 при Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. (Адрес: 100174, город Ташкент, Алмазарский район, улица Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, факс: (71) 246-90-80, e-mail: rektor@nuu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (регистрационный номер № 149). (Адрес: 100174, город Ташкент, Алмазарский район, улица Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 227-12-24, (71) 246-02-24, факс: (71) 246-90-80, e-mail: rektor@nuu.uz).

Автореферат диссертации разослан 10 сентября 2025 года.
(протокол реестра № 49 от 10 сентября 2025 года)




Х.П. Абулкосимов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор


К.К. Мамбетжанов
Учёный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор


А.В. Вахабов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Процессы глобализации и изменение геополитической ситуации в мире усиливают тенденцию во всех странах разрабатывать систему мер против факторов, угрожающих продовольственной безопасности. Согласно докладу Всемирной продовольственной организации, «...13,3% произведенных в 2023 году и 17,0% в 2024 году продовольственных товаров понесли потери на стадиях розничной торговли и потребления. В натуральном выражении этот показатель составляет в среднем 931 млн. тонн»¹⁹. В частности, недавняя пандемия коронавируса, кризисы в мировой политике и экономике привели к сбоям в цепочке поставок сельскохозяйственной продукции и росту цен. Это требует выявления факторов, влияющих на неравномерное развитие продовольственных рынков в странах мира и обусловленное этим региональное неравенство, и на этой основе пересмотра региональной политики в области продовольственной безопасности.

В научных исследованиях, проводимых во всем мире, проблема выявления факторов, негативно влияющих на эффективное функционирование продовольственного рынка, их особенностей и разработки инновационных методов их устранения рассматривается как глобальная проблема. В частности, к приоритетным направлениям научных исследований относятся выделение субсидий для стимулирования экспорта производителей продовольствия, локализация производства необходимых для потребления населением продуктов питания, выявление новых факторов, угрожающих продовольственной безопасности, и оценка их воздействия.

Узбекистан реализует социально-экономические и стратегические меры по обеспечению продовольственной безопасности. Однако, несмотря на то, что регионы республики, в том числе Наманганская область, за последние пять лет добились ряда положительных результатов в развитии пищевой промышленности, из-за наличия различной степени диспропорций в отрасли она отстаёт от среднереспубликанского показателя по объёму производства продовольствия на душу населения. Поэтому установление задач «увеличить в 2022-2026 годах валовой региональный продукт Наманганской области в 1,4 раза, объём промышленной продукции – в 1,5 раза, производство сельскохозяйственной продукции – в 1,2 раза, объём услуг – в 3,0 раза, объём строительных работ – в 1,6 раза»²⁰ сделало вопрос повышения

¹⁹ Your guide to living free of food waste. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/32a64f32-55fe-4248-a348-da9127f7be0a/content>

²⁰ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 211 от 25 апреля 2022 года «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий Наманганской области и дальнейшему повышению уровня жизни населения в 2022-2026 годах» // <https://lex.uz/ru/docs/5984308#5984924>

уровня производства продовольствия в регионе одним из наиболее актуальных на сегодняшний день.

Данная диссертационная работа подготовлена на основе Указов Президента Республики Узбекистан № УП-5303 от 16 января 2018 года «О мерах по дальнейшему обеспечению продовольственной безопасности страны», № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», № УП-6024 от 10 июля 2020 года «Об утверждении Концепции развития водных ресурсов Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-273 от 7 июня 2022 года «О дополнительных мерах по эффективной организации реализации задач, определенных в Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», №УП-287 от 30 декабря 2022 года «О мерах по разделению территорий республики на категории и внедрению дифференцированной системы поддержки предпринимательства», Постановления Кабинета Министров № 324 от 17 апреля 2019 года «О развитии дехканского хозяйства», «О мерах по повышению эффективности использования земель фермерских и приусадебных хозяйств», «Об определенной роли в реализации задач, обозначенных в постановлениях, будут играть принятые в республике «Дополнительные меры по обеспечению продовольственной безопасности и стабильности цен на внутреннем рынке» от 31 марта 2022 года № 147, «О дальнейшей поддержке производителей продовольствия в республике» от 20 января 2022 года № 37 , «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий Наманганской области и дальнейшему повышению уровня жизни населения в 2022-2026 годах» от 25 апреля 2022 года № 211 и другие нормативные правовые акты в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением республиканского научно-технического развития I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики» выполнено в соответствии с приоритетным направлением.

Степень изученности проблемы. Внедрение устойчивых продовольственных систем в дальних странах, местные источники продовольствия и маркетинг, а также вопросы снабжения продовольствием на микро- и макроуровнях изучались такими экономистами, как К. Уолтц, Г. Финстра, К. Хан, Дж. Данн, Р. Деннис, С. Дэвис, Р. Капоне, Р. Зурайк, С. Мартинес и К. Петерсон.²¹

²¹ Christopher L. Waltz. Local food systems: background and issues. - New York: Nova Science Publishers, 2011. – pp. 26-27.; Feenstra, G. Creating space for sustainable food systems: lessons from the field// J. Agriculture and Human Values. – Kansas: № 19 (2), 2002. – pp. 99-106.; Kristine Hahn. What is a food shed?// Michigan State University Extension. – Michigan: 24 (3), 2013. https://www.canr.msu.edu/news/what_is_a_food_shed; Jonnie B. Dunne, Kimberlee J. Chambers, Katlyn J. Giombolini and Sheridan A. Schlegel. What does “local” mean in the grocery store? Multiplicity in food retailers' perspectives on sourcing and marketing local foods// J. Renewable Agriculture and Food

В ближнем зарубежье исследования проводили Е.А.Абрамова, М.Е.Ахмадов, Е.Б.Дворядкина, Е.В.Саталкина, И.В.Филимоненко, Н.В.Новикова, М.Г.Лапаева и Д.В.Урманов с целью оценки деятельности местных продовольственных рынков по различным критериям и определения перспектив их развития.²²

Территориальная организация агропромышленного комплекса Узбекистана, потребительский спрос на продукты питания, цены на товары на дехканских рынках, отраслевая и территориальная структура сельского хозяйства, особенности формирования и развития регионального продовольственного рынка изучались такими экономистами, как О.Абдуллаев, А.Абдуганиев, Б.Б.Беркинов, М.Дехканов, О.О.Олимжонов, Б.З.Носиров, И.Иватов, Ч.Муродов, У.С.Мухиддинова, Н.Ж.Сотволдиев, Ф.Т.Егамбердиев и Р.Х.Хусанов.²³

Systems. - Cambridge: № 26 (1), 2011. – pp. 46–59.; Dennis R. Between the farm gate and the dinner plate: motivations for industrial change in the processed food sector// J. The future of food: long-term prospects for the agro-food sector. – Paris: 1998, № 1. – pp. 111-140.; Steve Davies. A Ripe Time for Local Food. <https://www.pps.org/article/farmersmarketsandlocalfood>; Capone R. Food Economic Accessibility and Affordability in the Mediterranean Region: an Exploratory Assessment at Micro and Macro Levels// Journal of Food Security. – Newark: 2014, № 1. – pp. 1-12.; Rami Zurayk. Global Views of Local Food Systems: Asking the Right Questions// Journal of Agriculture, Food Systems, and Community Development. - New York: № 1, 2012. – pp. 17-19.; Steve Martinez. Local Food Systems Concepts, Impacts, and Issues. - Washington: Economic Research Service, 2010. – pp. 3-4.; Christopher Peterson. Market Access for Local Food through the Conventional Food Supply Chain// International Food and Agribusiness Management Review. - Zhejiang: № 1, 2011. – pp. 41-60.;

²² Абрамова Е. А. Локальный рынок депрессивного региона: анализ, оценка, перспективы развития: на примере рынка овощной продукции: Авто. дис. ... канд. экон. наук. – Иваново: ИГХТУ, 2005. – 21 с.; Ахмадов М.Э. Исследование рыночного структурирования внутрирегионального экономического пространства// Инженерный вестник Дона. – Ростов: № 4, 2010. - С. 295-300.; Дворядкина Е.Б. Локальный потребительский рынок товаров и услуг: теоретические аспекты исследования// Известия Уральского государственного экономического университета. – Урал: № 6 (38), 2011. - С. 98-104.; Саталкина Е.В. Локальные рынки продовольственных товаров: инфраструктура и классификация// Ж. Налоги. Инвестиции. Капитал. – Тюмен: № 5-6, 2007. - С. 49-55.; Филимоненко И.В. Управление локальными рынками региона как факторами экономического роста (Монография). - Красноярск: СФУ, 2013. - С. 52-53.; Новикова Н.В. Понятийно-терминологический аппарат исследования локального потребительского рынка// Ж. Муниципалитет: экономика и управление. – Урал: № 1 (2), 2012. - С. 23-29.; Лапаева М.Г., Гушина А.А. Основные свойства локальных рынков// Ж. Интеллект. Инновации. Инвестиции. – Оренбург: № 3, 2017. – С. 31-34.; Урманов Д.В. Локальные территории в пространственном развитии системы «центр - периферия» региона// Вестник Томского государственного университета. – Томск: № 3, 2010. - С. 127-130."

²³ Абдуллаев О. Жумхуриятлараро агросаноатни ташкил этиш муаммолари.-Т.: Мехнат, 1991.; Абдуганиев А., Абдуганиев А.А. Кишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Дарслик.-Т.: ТДИУ, 2004.; Беркинов Б.Б., Ахмедов У.А. Аҳолини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган истеъмол талабларининг таҳлили// Ж. Bizines-Эксперт. – Тошкент: 2014, № 8. – Б. 47.; Дехконов М. Дехкон бозорларида товарлар нарх-навоси ўзгаришини эконометрик тадқиқоти: Иқтисод фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ФА Кибернетика ИИЧБ, 2001. – 23 б.; Олимжонов О.О. Изменения в территориальной и отраслевой структуре сельского хозяйства страны за 2005-2015 годы// Сборник VIII Форума экономистов. – Ташкент: ИПМИ, 2017. – С. 505-512.; Носиров Б.З. Минтақавий озиқ-овқат бозорини шакллантириш ва ривожлантиришининг хусусиятлари (Андижон вилояти мисолида): Иқтисод фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: СИСМ, 2004. – 23 б.; Иватов И. Развитие дехканского рынка в Узбекистане.-Т.: Фан, 1994.; Муродов Ч. Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида бозор инфратузилмасининг ривожланиши (аграр сектор мисолида): Иқтисод фан. док. ... дис. автореф.-Т.: ЎзБИИТИ, 2001.; Мухиддинова У.С. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида мевасавзавотчилик маҳсулотлари бозорини ривожлантириш йўналишлари: Иқтисод фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент: БМА, 2010. – 37 б.; Сотволдиев Н.Ж. Фарғона минтақасида озиқ-овқат бозорининг амал қилиш механизмини такомиллаштириш: Иқтисодиёт фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент: ПМТИ, 2021. – 76 б.; Эгамбердиев Ф.Т. Региональные особенности развития агропромышленного производства в условиях либерализации экономики: Автореф. дис. ... док. экон. наук. – Ташкент: НУУ, 2003. – 42 с.; Хусанов Р.Х., Додобоев Ю.Т., Додобоев Д.Ю. Агросаноат комплекси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма.-Т.: Қувасой тадбиркорлик ўқув илмий ишлаб чиқариш Маркази, 2003.

Следует отметить, что, во-первых, в вышеперечисленных исследованиях недостаточно теоретически изучено функционирование локального продовольственного рынка как компонента регионального экономического пространства. Во-вторых, в современных подходах остаются открытыми вопросы дифференциации локального продовольственного рынка с учетом неравномерности пространственного развития региона. Это послужило основанием для выбора темы диссертации и определения целей и задач исследования.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательской работы Наманганского государственного университета №ПЗ-20170929525 в рамках научно-практического проекта на тему «Разработка маркетинговой стратегии выращивания, переработки и реализации фруктов и овощей в Наманганской области».

Целью исследования является разработка научных предложений и рекомендаций направленные на улучшение функционирования продовольственного рынка региона.

Задачи исследования:

анализ экономической категории «местный продовольственный рынок» и изложение авторской позиции;

выявление влияния межрегиональных социально-экономических различий на формирование и развитие местного продовольственного рынка;

анализ направлений исследования местных продовольственных рынков в концепции региональной экономики;

оценка возможностей освоения природных факторов в сельских районах, специализирующихся на производстве продуктов питания;

анализ экономических и демографических факторов, влияющих на местный продовольственный рынок;

выявление проблем развития местного продовольственного рынка в Наманганской области;

обоснование направлений активизации точек экономического роста региона через местный продовольственный рынок;

разработка прогнозных параметров развития местного продовольственного рынка с учетом демографического и природно-экономического потенциала.

В качестве **объекта исследования** были выбраны местные продовольственные рынки Наманганской области.

Предметом исследования являются социально-экономические отношения, возникающие в процессе становления и развития местного продовольственного рынка.

